



## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY MOSLASHUV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

*Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova*

*Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'limgakul'teti dotsenti v.b., p.fff.d., (PhD)*

*Nozimaxon Olimjonova*

*Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'limgo 'nalishi I-bosqich magistri*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarida ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarining shakllanishi, bolaning o'z tengdoshlari guruhiga (ijtimoiy guruhga) osonlik bilan kirishi, jamiyatda mavjud bo'lgan me'yorlar, xulq-atvor qoidalarini qabul qilishi, yashash sharoitlariga moslashishi, bunda o'zini anglash va rolli xatti-harakatlar, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, boshqalar bilan adekvat munosabatlar shakllanishi, maktab ta'limga pedagogik va psixologik jixatdan tayyorligi to'g'risida mulohaza yuritiladi.

**Kalitso'zlar:** moslashuv, munosabat, psixologiya, jamiyat, muloqot, adaptatsiya, hissiy holat.

*Biz amalga oshirayotgan isloxoatlarning asosiy maqsadi- bolalarning baxtli kelajagi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishdir.*

*Sh.M.Mirziyoyev*

Mamlakatimizda mustaqillikning birinchi yillardan boshlab ta'limgoh sohasida eski yondashuvlardan butunlay voz kechilib, yangicha tamoyillarga, milliy qadriyat va an'analarimizga, jahon mamlakatlarining ilg'or tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash, uzoq va davomli maqsadlarni amalga oshirish uchun ta'limgoh va tarbiya sohasiga ustuvor ahamiyat qaratilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat maktabgacha ta'limgoh muassasasi to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Republikasida maktabgacha ta'limgoh tizimini takomillashtirish, uning uzlusizligini va samarali amalga oshirilishini ta'minlash, bolalar qamrovini kengaytirish va bunga munosib tarzda kadrlarni yetishtirib chiqarish maqsadida ishlab chiqildi. Bundan ko'rinish turibdiki, maktabgacha ta'limgoh tashkilotlarining, kelajak avlod bo'lmish bolalar hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligi, olib borilayotgan ishlar va yangiliklar misolida o'z aksini topmoqda. Bugungi kunda



davlat-xususiy sherkchilik sektorini rivojlantirish uchun yaratilgan keng imkoniyatlar nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonini yanada oshirish va ular ko‘rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo‘ldi.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bu jamiyatda inson psixologiyasi, uning tafakkuri, qarashlari, e’tiqodlari, axloqiy qadriyatları va ijtimoiy jihatdan faolligi ham yangi darajaga chiqmoqda. Bu jarayonga kattalar qiyinchiliklarsiz moslashish ehtimoli yuqori, ammo ijtimoiy moslashish ko‘nikmalarini bolalarda shakllantirish murakkab va yetarlicha e’tibor talab qiladigan vaziyat hisoblanadi. Bola dunyo bilan muloqot qilishning birinchi tajribasini oilada ota-onalar va yaqin odamlarning diqqat bilan qarashi ostida oladi. Aynan oila bolaning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatini ta’minlaydi, uning dunyoni bilish qobiliyatini oshiradi. Bu odamlar bilan muloqot qilish tajribasini shakllantirishga, bolaning turli ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishiga, jamoaviy faoliyat jarayonida kattalar, tengdoshlar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Albatta, doimiy o‘rgangan va o‘zi uchun tanish bo‘lgan comfort zonasidan chiqish, bolalar hayotida yangi bosqichga o‘tishdek, jiddiy va muhim jarayondir. Jamiyatdagi muloqot va kommunikativlikning yetishmasligi, ularning individual va ijtimoiy rivojlanishini sekinlashtiradi. Aynan shu holatda, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilar o‘zlarining professional mahoratlarini ko‘rsatishi va bolani yangi muhitga qiyinchiliklarsiz moslashtira olishi zarur. Bunda pedagog tarbiyalanuvchilarning psiko-emotsional holatlarini ham inobatga olgan va unga zarar yetkazmagan holda yondashishi lozim. Bolaning ijtimoiy-psixologik moslashuvi turli yo‘llar bilan sodir bo‘ladi va bevosita bolaning yoshiga, sog‘lig‘ining holatiga, yuqori asabiy faoliyat turiga, oiladagi tarbiya uslubiga va uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarga, o‘yin ko‘nikmalarining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Ko‘p jihatdan, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi ota-onalarning bolani bo‘lajak o‘zgarishlarga qanday axloqiy va jismoniy tayyorlanganiga, shuningdek, bolaning individual tipologik xususiyatlariga bog‘liq xolerik va sangvinik odamlar flegmatik melanxoliklarga qaraganda tezroq moslashadi. Bolalarning ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish uchun ota-onalar farzandlariga yoshligidan tengdoshlar va kattalar bilan muloqot qilish san’atini o‘rgatishlari, to‘g‘ri kun tartibiga rioya qilishlari kerak. Bolaning eng kichik yoshidanoq uning mustaqilligini rag‘batlantirish kerak, keyin u sog‘lom va komil shaxs bo‘lib o‘sadi.

Ota-onalar va tarbiyachilar orasidagi aloqa juda muhimdir. Ota-onalar tarbiyachiga bolaning rivojlanish xususiyatlari, yomon odatlari, uyqusi, ishtahasi,



sevimli ovqati, sevimli o‘yinchoqlari va boshqalar haqida aytib berishlari kerak. Tarbiyachi bolani maktabgacha ta’lim tashkiloti xavfsiz va u uchun ishonchli maskan ekanligiga, bu yerda vaqtini mazmunli hamda maroqli o‘tkazishi mumkinligiga ishontira olishi kerak, shu bilan birga qisqa vaqt mobaynida unda bog‘cha haqida iliq taassurotlar uyg‘otishi zarur. Bolaning moslashganlik ilk belgilarini tinch uyqu, boshqa bolalar bilan muloqotga kirishishi, pedagogning har qanday taklifiga adekvat javob berish, normal hissiy holati orqali bilib olish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxsning intellektual, axloqiy-irodaviy va hissiy sohasining jadal rivojlanishi kuzatiladi. Tayyorlov guruhga o‘tish bolalarning psixologik holatining o‘zgarishi bilan bog‘liq: birinchi marta ular bolalar bog‘chasidagi boshqa bolalar orasida eng kattasi kabi his qila boshlaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarida adaptatsiya jarayonida muammolarni yuzaga keltiradigan bir nechta omillar mavjud. Eng asosiy sabablardan biri, asab tizimining faoliyatini buzadigan kasallikkardir. Masalan, DEHB (diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi) bilan bolalar beparvo, impulsiv, haddan tashqari faol bo‘ladi, bu ularning atrofidagilar tomonidan tanbeh eshitishiga sabab bo‘ladi. Atopik dermatit va bronxial astma umumiy asabiy fonni o‘zgartiradi. Bunday bolalar ko‘proq injiq, ko‘z yoshlarini, o‘zini tuta olmaydigan bo‘lib qoladi. Ikkinchi omil esa, emotsional sohaning o‘ta yuqori sezuvchanligidir. Bunda bolalarga sustlik yoki tajovuzkorlik, haddan ziyod uyatchanlik xalaqit beradi. Keyingi navbatda, muloqot ko‘nikmalarining yetishmasligi, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklar masalasi turadi. Aynan shu omil ko‘pincha ijtimoiy moslashuvning buzilishiga sabab bo‘ladi. To‘rtinchi muammo, konfliktli vaziyatlarni mustaqil hal eta olmaslik, faoliyatda sheriklarning qarshiligiga toqat qilmaslik, vaziyatdan chekinish kabilardir.

Bola yangi qo‘shilgan jamiyatida o‘zini muhim, ajralmas bir bo‘lak sifatida his qila olishi kerak. Moslashuv jarayonini oson va travmalarsiz amalga oshirishda otanonalar hamda tarbiyachilar uchun olimlar va tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan bir nechta usullar mavjud. Birinchi usulda, tarbiyachi guruhga yangi kelgan tarbiyalanuvchini o‘z yordamchisi qilib olishi, unga guruhga doir muhim topshiriqlarni bajarishni topshirishi, bu vazifalarni aynan u a’lo darajada bajara olishini tushuntirishi mumkin. Shu yondashuv orqali ham ijobiy natijalar olish mumkin. Ikkinchi usul, bola maktabgacha ta’lim tashkilotiga borishni boshlashdan bir necha kun avval ,ota-onas farzandi bilan ta’lim tashkilotiga tashrif buyuradi va u yerdagi atmosfera bilan yaqindan tanishadi. Bu yangi makon va notanish muhit haqidagi xavotirlarni yengillashtirishi mumkin. Tashrif, shuningdek, bo‘lajak



tarbiyachi bilan uchrashish,bolani xona va guruhdoshlari bilan tanishtirish, o‘quv yili boshlanganda o‘ynaydigan o‘yinchoqlarini o‘rganish imkonini beradi.Ota-on tarbiyachidan bolani yangi muhitga qanday moslashtirish texnologiyalaridan foydalanishini so‘rashi ham o‘rinli hisoblanadi.Shu o‘rinda ota-onalar ham farzandi hayotidagi o‘zgarishlarda uni qo‘llab-quvvatlashi va psixologik jihatdan to‘g‘ri yondashishi zarur. Lekin,ota-onadagi haddan ortiq xavotir, qo‘rquv va farzandini maktabgacha ta’lim tashkilotida qoldirayotganligi uchun aybdorlik hissini his qilishi ham bolaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Yana bir eng ko‘p uchraydigan xatoliklardan biri,ota-onalarning farzandi bilan xayrlashmasdan,berkinib ketib qolishidir.Bunda bola o‘zini yanada yolg‘iz va tashlab ketilgan his qilishi mumkin.Aksincha,juda uzoq xayrlashuv esa bolada ta’lim tashkiloti haqidagi salbiy fikrlar kuchayishiga sabab bo‘ladi.Shuni ham yodda tutish kerakki,ko‘pchilik bolalar ota-onalari ketganidan so‘ng yaxshi moslashishadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning muvaffaqiyatlari ijtimoiy moslashuvi uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etib, bunda innovatsion texnologiyalardan asosan o‘yin texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha o‘yinlari o‘zining mazmuni, xususiyati va tashkil etilishiga ko‘ra 2 katta turkumga bo‘linadi:

1.Ijodiy o‘yinlar: -syujetl -rolli o‘yinlar; -sahnalashtirilgan o‘yinlar; -qurish va yasashga doir o‘yinlar.

2. Qoidalgi o‘yinlar: -didaktik; -harakatli; -musiqaviy; -ermak o‘yinlar.

O‘yin texnologiyalari amaliy faoliyat hisoblanadi. O‘yin turkumlari va turlari mashg‘ulot maqsadini va bolalarning yosh va psixologik holatlarini inobatga olgan holda tanlanadi. Mashg‘ulotlar davomida bolalarda mas’uliyat, hayotga qiziqish va bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otish o‘yining asosiy vazifalaridandir. O‘yin-bu mashg‘ulot demakdir. Mashg‘ulot davomida turli rangdagi, foydalanishga qulay jihozlaridan,o‘quv qurollaridan foydalanish bolalarning mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi.O‘yin bola dunyosidagi muhim qirralardan biri bo‘lib, xotira, tafakkur, e’tibor, nutqning rivojlanishiga, undagi ijtimoiy-axloqiy normalarning assimilyatsiyasiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘yin eng kuchli hissiy omil, estetik tajribalar markazi, irodalilik sifatlari va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish uchun qulay muhitdir. An'anaviy o‘yin bolalar va kattalar o‘rtasidagi munosabatlarga juda ko‘p yangi narsalarni olib kelishi, ularni birgalikda yaratishga undashi, ikkalasining ham aqliy va emotSIONAL sohalariga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi muhimdir. Adaptatsiya davrida o‘tkaziladigan o‘yinlarga qo‘yiladigan talablar:



- O‘yinlar frontal shaklda bo‘lishi maqsadga muvofiq, shunda hech bir bola o‘zini e’tibordan chetda qolgan his qilmaydi;

- O‘yin vaqtı juda uzoq bo‘lmasligi (eng yaxshisi kuniga bir necha marta, qisqa muddatli), lekin tizimli ravishda takrorlanishi kerak;

- Musiqa, raqs harakatlari va chizishdan foydalanish, bolalardagi hissiy zo‘riqishni yengillashtirishga, o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishga, e’tiborni jalb qilishga, pozitiv kayfiyatda yurishga yordam beradi;

- Barcha bolalarni ishtirok etishga majburlash kerak emas. Avvaliga ba’zi bolalarga oddiygina bo‘layotgan voqealarni kuzatishga ruxsat berish maqsadga muvofiqdir;

- Vaqtı-vaqtı bilan ota-onalarni bunday o‘yin mashg‘ulotlariga taklif etish va ushbu o‘yinlarni uyda takrorlash uchun tavsiya etish, shuningdek, bolaning bolalar bog‘chasida o‘rgangan mavzusida uyda o‘yinlar tashkil etish mumkin.

Guruh bo‘lib ishlashni rivojlantiradigan o‘yinlar:

“Bir-birimiz bilan tanishaylik!”

Bolalar o‘qituvchi bilan aylanada turishadi. Tarbiyachi to‘pni ushlab turadi (bu o‘yin uchun yengil to‘pni ishlatish yaxshiroqdir, chunki u yumshoq va odatda yorqin, rang-barang) va biror bir bolaning ismini aytib, unga to‘pni otadi. Ismi aytilgan bola to‘pni tutib oladi, u ham o‘yining keyingi ishtirokchisining ismini chaqiradi va unga otadi. Odatda, bolalar bu o‘yinni o‘ynashdan xursand bo‘lishadi, ammo uni har safar turli shaklda diversifikatsiya qilish mumkin: to‘p o‘rniga o‘yinchoq (eng chiroyli) o‘tkazing yoki bolalarni bir-birlari bilan ism-sharif bilan salomlashishga taklif qiling.

“Pufakchani portlat!”

Bolalar tarbiyachi bilan qattiq doira tashkil etishadi, bu xuddi ishirilgan shar ko‘rinishida. Barcha uni ishirishni boshlaydi: boshlarini pasga egib, mushtlarini ichiga puflaydilar, bolalar bir-biriga zich yopishib turishadi. Har bir puflaganda, pufak kattalashgandek, bolalar orqaga qadam tashlashadi. Keyin hamma qo‘llarini birlashtiradi va doira bo‘ylab aylanishadi. “Ishgin pufak, kattaroq ishgin, Shunday qol, yorilmagin!” Bolalar katta cho‘zilgan doiraga aylanishadi. Keyin tarbiyachi (avval pedagog, so‘ngra bolalardan biri) “Qarsaklar” deydi va pufak yoriladi. Barcha ishtirokchilar xona bo‘ylab yugurib tarqab ketishi kerak (pufakchalar uchib ketadi).

“Shilliqurt”

Bolalar bir-birining orqasida turib, yelkalarini mahkam ushlashadi. Bu holatda ular keying to‘siqlarni yengib o‘tishi zarur: stuldan tushish va ko‘tarilish, stollar



ostida sudralib yurish, "keng ko'l" atrofida yurib, "qalin o'rmon" dan o'tib, "yovvoyi hayvonlar" dan yashirinish.

### “Ayiqlar”

O'yinni boshlovchi “ayiq” ishtirokchi (avval o'yinchoq, keyin bola bo'lishi mumkin) xona atrofida yugurib yurgan bolalarni tutib oladi. Ayiq tomonidan ushlangan ishtirokchilar birlashib, qo'llarni ushlab “zanjir”ni hosil qilishadi. Keyin “ayiqlar” “zanjirlar”ga tushib qolishdan qochishadi. O'yin shu tarzda davom etadi.

Bola bilan munosabatlarni yaxshilashga yordam beradigan o'yinlar:

### “Salom, Xayr”

Tarbiyachi bolaga yaqinlashib, qo'lini silkitib, salom beradi.” - *Salom!* “So'ngra boladan salomga javob berishini so'raydi. “- Salom!”-deylik. Qo'lingni silkitgin.-*Salom!* Xayrlashayotganda o'yin takrorlanadi — tarbiyachi qo'lini silkitib qo'yadi. - *Hayr!* So'ng boladan ham xayrlashishni so'raydi.

*Kutib olish va xayrlashishning bu urf-odati* sinf boshida va oxirida muntazam ravishda takrorlanishi kerak. Asta-sekin bola ko'proq tashabbus ko'rsata boshlaydi, o'zicha uchrashganda va xayrlashayotganda tarbiyachi bilan salomlashishni o'rganadi. Bu o'yin foydalidir, chunki u odamlar o'rtasidagi xulq-atvor qoidalarini o'rgatadi.

### “Yumshoq panjalar”

Tarbiyachi she'r o'qiydi va mushukchani tasvirlaydi: Oppoq mushukchaning yumshoq panjalari bor ekan(bir qo'li bilan ikkinchi qo'lini silab ko'rsatib). Har bir panjasida timdalaydigan tirnoqlari bor(barmoqlarini siqib ochadi). Keyin bolaga mushukchani tasvirlashini taklif qiladi. Bola mushukchani tasvirlashni o'rgangandan so'ng, juft-juft bo'lib o'ynash mumkin: tarbiyachi avval bolani qo'lini silaydi, keyin xuddi tirnoqlari bilan bolani timdalamoqchi bo'lgandek harakat qiladi(bu vaziyatda bola qo'lini tezda olishi kerak). So'ngra tarbiyachi va bola rollarini almashishadi. Bu o'yin bola bilan yuzma-yuz munosabatga kirishish va bolaning diqqatlilagini oshirishga yordam beradi.

Boladagi emotsiyal va ruhiy bosimlarni yo'qotishga yordam beradigan o'yinlar:

### “Chinor barglari”

Tarbiyachi sokin musiqa qo'yadi va har bir bolaga bittadan chinor bargini beradi. Bolalarga qarab shunday deydi: Tasavvur qiling, siz - chinor barglarisiz. Kuz keldi, shamol barglarni daraxtdan yulib ketdi va ular havoda uchib yuribdi. Barglar shamolda qanday raqsga tushayotganini ko'rsating. Bolalar musiqa ostida barglar uchishini, aylanishini tasvirlashadi. Barglar to'kiladi, to'kiladi(barglarni tasvirlab



aylanishadi), sariq barglar uchadi(barglarni yuqoriga otishadi). Oyoq ostida shitir, shitirlaydi(burglar ustidan yurishadi), tez orada bog' bo'm-bo'shga aylanadi(polga yotishadi va musiqani tinglashadi).

O'yinlar tezda bolalarni o'z ritmiga jalg qiladi, bolalarni birlashtiradi, ijobjiy hissiy kayfiyatni o'rnatadi. Bunday o'yinlarda hatto uyatchan, introvert bolalar ham ichki to'siqni asta-sekin yengib, aloqa o'rnatadi.

Maktabgacha yoshdagи bolalarning har tomonlama rivojlanishi va tarbiyasida o'yindan foydalanish rus maktabgacha pedagogikasida keng o'rganilgan. Bu yerda o'yin bolaning o'z-o'zini ifoda etish vositasi sifatida ko'rib chiqiladi, bu esa aqliy rivojlanish va xatti-harakatlarni tartibga solish, bolalar o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishi va bolaning mustaqil faolligini shakllantirish bilan bog'liq turli muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi. O'yinlarni tizimli o'rganish va ularning ta'lilda amaliy qo'llanilishiga bo'lgan ehtiyoj I.I. Betskoy, N.I. Novikov, A.I. Herzen, V.G. Belinskiy, N.G. Chernyshevskiy, N.A. Dobrolyubov, D.I. Pisarev va boshqalarning asarlarida asoslandi. O'yinning yosh avlod tarbiyasi va ta'lim-tarbiyasidagi roliga yuqori baho berish K.D.Ushinskiy tomonidan berildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida deyarli barcha mashg'ulotlarda o'yin texnologiyasidan foydalaniladi, bu esa ta'lim jarayoniga bolalarning diqqat e'tiborini ko'proq jalb qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarining ijtimoiy moslashuvida ota-onaning, muhitning, tarbiyaning va tarbiyachi berayotgan ta'lim tarbiyaning roli kattadir. Bolaning ijtimoiy moslashuvida predmetli muhitni to'g'ri tashkil qilib bera olish, uning ichki "men" nini shakllantirish, ichki dunyosini his qila olish va bola bilan to'g'ri muloqot qilish lozim. Bola atrofdagilarga o'z munosabatini bildirishida va muloqotga kirishishi uchun ruhiyatini ko'tarish tashqi olamga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish lozimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abbosova.A.A "MAKTABGACHA TA'LIMDA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINING IJTIMOIY MOSLASHUVI"
2. Kathryn Hoffses, PhD <https://kidshealth.org/en/parents/adjust-to-preschool>
3. Мусилович Татьяна Анатольевна <https://pcenter-tlt.ru/igry-s-detmi-v-period-adaptaczii-k-doshkolnomu-uchrezhdeniyu>
4. Zohidova S. R.(PhD) "maktabgacha yoshdagи bolalarni ijtimoiy moslashtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari" 2022. 168 bet



5. Gaynazarova, G. A. Actual Problems of Continuous Qualification Improving of Preschool Educational Institution Tutors. Eastern European Scientific Journal. Ausgabe, ISSN, 21997977, 104-109.
6. Gaynazarova, G. A. (2023). Causes and Pathology of lefthandedness. Eurasian Scientific Herald, 20, 49-51.
7. Gaynazarova, G. (2022). Social adaptation and its pedagogical factors (on the example of girls). Science and Innovation, 1(8), 2160-2164.
8. Gaynazarova, G. A., & Shonasirova, Z. Y. D. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIGA HORIJIY TAJRIBALARNI QO 'LLASHNING ZARURATI. Science and innovation, 2(Special Issue 5), 721-724.
9. Abdullayevna, G. G., & Kamaldinovna, B. M. (2022). WAYS OF FORMATION OF TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS.
10. Gaynazarova, G. A. (2020). A model for improving the professional competence of teachers and preschool educators in the process of professional development and the essence of its main components. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(S6), 672-678.
11. Гайназарова, Г. А. (2020). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ПЕДАГОГ-ТАРБИЯЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ОШИРИШ ДОЛЗАРБ МУАММО СИФАТИДА. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 3).
12. Abdullayevna, G. G. (2019). ANALYSIS OF THE RESULTS OF EXPERIMENTAL WORK ON IMPROVEMENT OF PROFESSIONAL SKILLS OF PRESCHOOL TEACHERS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
13. Гайназарова, Г. А. (2017). Мактабгача таълим муассасаси тарбиячиларида педагогик маҳоратни шакллантиришнинг ўзига хос жиҳатлари. Современное образование (Узбекистан), (10), 47-53.